
O’zbek tilshunosligi muammolariga bag'ishlangan respublika ilmiy konferensiya o’tkazildi

Joriy yil 21-avgust kuni O’zbekison Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish depatamenti, FA O’zbek tili, adabiyot va follori instituti, Yozuvchilar uyushmasi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti hamda Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi hamkorlida “O’zbek tilshunosligini rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o’tkazildi.



Unda yetakchi tilshunos olimlar, yosh tadqiqotchilar, doktorantlar, oliy ta’lim muassasalari vakillari ishtirok etdi.

Konferensiya yalpi majlisidan so’ng kunning ikkinchi yarmida sho’balar yig’ilishida davom etdi. Unda o’zbek tilshunosligining nazariy va amaliy muammolari, globallashuv davrida ona tilini o’qitish muammolari hamda O’zbekistonda davlat tilida ish yuritish masalalariga bag’ishlangan ma’ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.